Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: artiqova0109@mamunedu.uz

ORCID: 0009-0006-5879-9259

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligini ekonometrik modellash tirish iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishining asosiy omiliga aylangan. Ushbu tadqiqotda an'anaviy SFA va DEA modellarning cheklovlarini bartaraf etish maqsadida Ko'p darajali integratsiyalashgan mehnat unumdorligi va resurs samaradorligi modeli (ML-IPREM) taklif etilgan. Model sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida sinergik ta'sirini hisobga olgan holda korxona–tarmoq–mintaqa–milliy darajalarida birgalikda modellash tirish imkonini beradi. Tadqiqot O'zbekistonning “Yangi O'zbekiston” strategiyasi, o'rta daromadli tuzoq, norasmiy sektor va energiya sig'imi muammolarini kontekstual moslashtirish orqali amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan model mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini yaratadi hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga nazariy-metodologik asos beradi.

Kalit so'zlar: mehnat unumdorligi, resurslar samaradorligi, ekonometrik modellash tirish, ML-IPREM modeli, sun'iy intellekt, yashil texnologiyalar, GTFP, o'rta daromadli tuzoq, “Yangi O'zbekiston” strategiyasi.

Abstract. In the context of globalization, digital transformation, and the rapid development of artificial intelligence technologies, econometric modeling of labor productivity and resource efficiency has become a key factor in ensuring sustainable and inclusive economic development. This study proposes a Multi-Level Integrated Productivity and Resource Efficiency Model (ML-IPREM) to address the limitations of traditional SFA and DEA models. The model enables integrated multi-level modeling at the enterprise–sector–regional–national levels, taking into account the synergistic effects of artificial intelligence and green technologies. The study is contextualized within Uzbekistan's “New Uzbekistan” strategy, the middle-income trap, the informal sector, and energy intensity challenges. The results show that the proposed model significantly enhances labor productivity and resource efficiency and provides a theoretical and methodological foundation for sustainable economic development of the country.

Key words: labor productivity, resource efficiency, econometric modeling, ML-IPREM model, artificial intelligence, green technologies, GTFP, middle-income trap, “New Uzbekistan” strategy.

Аннотация. В условиях глобализации, цифровой трансформации и стремительного развития технологий искусственного интеллекта эконометрическое моделирование производительности труда и эффективности использования ресурсов становится ключевым фактором устойчивого и инклюзивного экономического развития. В данном исследовании предложена многоуровневая интегрированная модель производительности труда и ресурсной эффективности (ML-IPREM), направленная на устранение ограничений традиционных моделей SFA и DEA. Модель обеспечивает комплексное многоуровневое моделирование на уровнях предприятие–отрасль–регион–национальная экономика с учетом синергетического воздействия искусственного интеллекта и «зеленых» технологий. Исследование выполнено в контексте стратегии «Новый Узбекистан», ловушки среднего дохода, неформального сектора и проблемы энергоемкости. Результаты показывают, что предложенная модель значительно повышает производительность труда и эффективность использования ресурсов, а также формирует теоретико-методологическую основу устойчивого экономического развития страны.

Ключевые слова: производительность труда, эффективность ресурсов, эконометрическое моделирование, модель ML-IPREM, искусственный интеллект, зеленые технологии, GTFP, ловушка среднего дохода, стратегия «Новый Узбекистан».



KIRISH

Hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligini oshirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv rivojlanishining asosiy tayanchiga aylangan. Jahon iqtisodiyoti oldida turgan murakkab muammolar — resurslar tanqisligi, iqlim o'zgarishi, demografik o'zgarishlar va pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari — mehnat va resurslardan samarali foydalanishni yangicha talab etmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2024-yillarda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi o'sishi sekinlashgan bo'lib, o'rtacha 0,4–0,6 % ni tashkil etgan. AQShda esa SI va raqamli texnologiyalar ta'sirida 1,5–2,7 % gacha oshgan. Shu bilan birga, umumiy omil unumdorligi (TFP) ning uzoq muddatli pasayishi (1995–2000 yillarda 1,4 % dan keyingi davrda 0,4–0,9 % gacha) global o'sishni sekinlashtirmoqda[1].

Zamonaviy tendensiyalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Birinchidan, Sanoat 4.0 va SIning integratsiyasi mehnat unumdorligini oshirishda inqilobiy o'zgarishlarni keltirmoqda. Generativ SI ishchi samaradorligini alohida vazifalarda 15 % ga oshirishi mumkin, ammo makro darajada TFP ga ta'siri hali to'liq ochildmagan (taxminan 0,66 % dan 1,5 % gacha 10 yil ichida). Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) resurslar samaradorligini markaziy o'ringa qo'ymoqda. SI va mashina o'rganishi yordamida yashil umumiy omil unumdorligi (GTFP) modellarini qurish resurs isroflarini kamaytirish va ekologik bosimni pasaytirish imkonini beradi. Uchinchidan, katta ma'lumotlar, panel ma'lumotlar, stoxastik chegaraviy tahlil (SFA), ma'lumotlar o'rab tahlili (DEA) va mashina o'rganishi (MMQR, kvantil regressiyasi) kabi zamonaviy ekonometrik usullar an'anaviy modellar cheklovlarini (chiziqlilik, geteroskedastiklik) bartaraf etib, murakkab iqtisodiy bog'lanishlarni aniqroq modellashtirishga imkon yaratmoqda[2–3].

O'zbekiston kontekstida mavzu ayniqsa dolzarb. Mamlakatimizda “Yangi O'zbekiston” strategiyasi va 2030-yilgacha bo'lgan iqtisodiy islohotlar doirasida mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning o'rta daromadli tuzoqdan chiqib, yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga kirishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarida ekonometrik modellashtirish investitsiyalar samaradorligini, resurs taqsimotini va eksport salohiyatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotga o'tish, innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni joriy etish orqali mehnat resurslarining sifati va malakasini oshirish zarurati kuchaymoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat unumdorligi va resurs samaradorligi ko'rsatkichlari hali yetarli emasligi, energiya sig'imi yuqoriligicha qolayotgani va norasmiylik darajasi yuqoriligicha saqlanayotgani ekonometrik yondashuvlarni chuqurlashtirishni talab etmoqda[4].

Shunday qilib, mavzuning dolzarbligi, birinchi navbatda, jahon miqyosida mehnat unumdorligi va TFP o'sishining sekinlashishi global iqtisodiy o'sishni cheklab qo'yayotgani bilan izohlanadi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va yashil texnologiyalar kabi zamonaviy tendensiyalar an'anaviy ekonometrik modellar cheklovlarini bartaraf etib, yangi imkoniyatlar yaratishni talab etmoqda. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari va barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida mehnat va resurs samaradorligini ilmiy asoslangan modellashtirish siyosat va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot obyekti iqtisodiy tizimning turli darajalarida — korxona, tarmoq, mintqa va milliy iqtisodiyot miqyosida — mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligi shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlaridan iborat bo'lsa, tadqiqot predmeti ushbu jarayonlarni ekonometrik modellashtirishning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda o'rganishdan tashkil topadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligini ekonometrik modellashtirishning nazariy asoslarini hozirgi zamonaviy iqtisodiy sharoit va texnologik tendensiyalarga mos ravishda chuqurlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat bo'lib, bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim: birinchidan, mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligi tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish; ikkinchidan, mavjud ekonometrik modellar (SFA, DEA, panel data, VAR va boshqalar) hamda ularning cheklovlarini o'rganish; uchinchidan, zamonaviy tendensiyalar ta'sirida ekonometrik modellashtirishning yangi yondashuvlarini aniqlash; to'rtinchidan, mehnat unumdorligi va resurs samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish; beshinchidan, olingan natijalarga asosan amaliy tavsiyalar va siyosat takliflarini shakllantirish. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham korxona darajasida resurslarni optimallashtirish, davlat siyosati va strategik rejalashtirish jarayonlarida keng qo'llanilishi mumkin bo'lib, maqola mazkur mavzuning dolzarbligini yanada chuqurlashtirib, O'zbekiston va xalqaro tajribada ekonometrik modellashtirishning rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi globallashuv va texnologik inqilob sharoitida mehnat unumdorligi hamda resurslar samaradorligini ekonometrik modellashtirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan



biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. So'nggi 5 yil ichida nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar mehnat unumdorligi va TFP, xususan GTFPni modellashtirishda zamonaviy ekonometrik usullarni keng qo'llashni ko'rsatmoqda. Ushbu bo'limda xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilinadi, ularning asosiy natijalari, metodologiyasi va cheklovlari ko'rib chiqiladi hamda mavjud bo'shliqlar asosida tadqiqotning o'ziga xosligi ta'kidlanadi.

Xorijiy olimlar mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini modellashtirishda asosan SFA (Stochastic Frontier Analysis), DEA (Data Envelopment Analysis) va ularning kengaytirilgan shakllarini (SBM-DEA, GML indeksi) qo'llab, sun'iy intellekt (SI), sanoat 4.0 va raqamli transformatsiya ta'sirini o'rganmoqda. Masalan, Wang va boshq. Xitoyning ro'yxatga olingan korxonalari misolida raqamli transformatsiyaning GTFP ga ta'sirini SBM-GML indeksi va panel data yordamida tahlil qilgan. Natijada raqamli transformatsiya GTFPni sezilarli darajada oshirishi, bu jarayon ichki boshqaruv va texnologik innovatsiyalar orqali amalga oshirilishi aniqlangan. Biroq tadqiqot faqat Xitoy korxonalari bilan cheklangan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning institutsional farqlarini hisobga olmagan [5].

Shunga o'xshash ravishda Wei va boshq. Economic Analysis and Policy jurnalida 3525 ta Xitoy korxonasi panel ma'lumotlariga asoslanib, yuqori samaradorlikdagi SBM-GML va EBM-GML modellaridan foydalangan holda raqamli transformatsiyaning GTFPga ta'sirini ikki tomonlama to'g'rilangan mashina o'rganishi (double/debiased machine learning) usuli bilan baholagan. Tadqiqot raqamli transformatsiya yuqori texnologiyali va moliyalashtirish darajasi past bo'lgan korxonalarda GTFPni kuchliroq oshirishini ko'rsatgan. Metodologiyaning kuchli tomoni mashina o'rganishini integratsiya qilish orqali endogenlik muammosini bartaraf etish bo'lsa-da, cheklov sifatida faqat korxona darajasidagi tahlil va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasining yetishmasligi qayd etilgan [6].

Guo va boshq. Polish Journal of Environmental Studiesda aqlli ishlab chiqarish va inson-mashina moslashuv darajasining shahar GTFPga ta'sirini panel silliq o'tish regressiyasi (PSTR) modeli yordamida o'rgangan. Natijada aqlli ishlab chiqarish GTFPni oshiruvchi omil ekanligi, ammo moslashuv darajasi past bo'lgan hududlarda ta'sir zaiflashishi aniqlangan. Tadqiqot yashil iqtisodiyot va sanoat 4.0 bog'lanishini chuqur ochgan, lekin faqat Xitoy shaharlariga qaratilganligi cheklov hisoblanadi [7].

Huang va boshq. Energy Economics jurnalida raqamli iqtisodiyotning energiya sig'imi pasayishiga ta'sirini panel ma'lumotlar va kvantil regressiya (MMQR) usullari bilan tahlil qilgan. Raqamli transformatsiya energiya samaradorligini oshirib, yashil jami omil unumdorligi (GTFP)ga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ammo past kvantil darajalarda ta'sir zaif ekanligi ko'rsatilgan. Metodning kuchli jihati heterogenlikni hisobga olish bo'lsa-da, ekologik omillarning to'liq integratsiyasi yetarli emas [8]. Chen va boshq. og'ir ifloslantiruvchi korxonalarda raqamli transformatsiya va GTFP o'rtasidagi bog'liqlikni oddiy eng kichik kvadratlar usuli (OLS) hamda vositachilik va moderatsiya (mediation-moderation) modellarida o'rgangan [9]; Wang va boshq. raqamli iqtisodiyotning GTFPga ta'sirini kvantil regressiya orqali tahlil qilgan [10]. Ushbu tadqiqotlar umumiy holda GTFPni modellashtirishda DEA/SFA va ML integratsiyasining samaradorligini tasdiqlaydi, ammo asosan rivojlangan yoki Xitoy kabi yirik iqtisodiyotlar misolida o'tkazilgan.

O'zbekiston olimlari mehnat unumdorligi va resurs samaradorligi masalalarini asosan tavsifiy va an'anaviy usullar bilan o'rganmoqda. Khomitov sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini ekonometrik tahlil qilgan holda ishlab chiqarish hajmi, ishchi soni va ish haqi kabi omillarni regressiya modeli orqali baholagan. Natijada mehnat unumdorligi o'sishi asosan kapital intensivligi va eksportga bog'liqligi aniqlangan, ammo SFA yoki DEA kabi zamonaviy usullar qo'llanmagan [11].

Anvarova "Mehnat unumdorligi va aholining bandligi o'sishidagi roli" mavzusida O'zbekiston iqtisodiy o'sishida mehnat resurslarining ahamiyatini tavsifiy tahlil qilgan. Tadqiqot "Yangi O'zbekiston" strategiyasini hisobga olgan, lekin ekonometrik modellashtirish chuqurlashtirilmagan [12].

Artiqova "Raqamli iqtisodiyot" jurnalida Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyot rivojida institutsional boshqaruvning o'rnini FMOLS va CCR panel kointegratsiya usullari yordamida tahlil qilgan. Tadqiqot qayta tiklanuvchi energiya va institutsional samaradorlikning resurslar samaradorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, yashil iqtisodiyotga o'tish zarurligini ta'kidlagan. Ushbu ish mahalliy kontekstda zamonaviy panel ekonometrik usullarini qo'llashning ijobiy namunasi bo'lsa-da, mehnat unumdorligi va korxona-tarmoq darajasidagi modellashtirishning yetishmasligi uning asosiy cheklovi hisoblanadi [13].

Mavjud xorijiy ishlar asosan rivojlangan mamlakatlar yoki Xitoy kabi yirik iqtisodiyotlarning makro darajasiga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston kabi o'rta daromadli mamlakatlarning o'ziga xos muammolari yetarli darajada qamrab olinmagan. Mahalliy tadqiqotlar esa ko'pincha tavsifiy yoki an'anaviy regressiya usullariga asoslangan bo'lib, zamonaviy ekonometrik yondashuvlar (MMQR, mashina o'rganish bilan integratsiyalashgan SFA/DEA, GTFP + SI ta'siri) yetarli emas. Ushbu tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini korxona-tarmoq-mintaqa-milliy darajalarida birgalikda modellashtirish, sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida ta'sirini hisobga olgan holda, O'zbekistonning amaliy islohotlari kontekstida yangi nazariy-metodologik asoslarni takomillashtirishdan iborat.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning umumiy metodologik yondashuvi nazariy-tahliliy, qiyosiy-taqqoslash, sintez hamda deduktiv-induktiv usullarga asoslangan. Ushbu yondashuvlar orqali mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligini ekonometrik modellashirishning nazariy asoslarini tizimli ravishda ochib berish, mavjud modellar cheklovlarini aniqlash va yangi integratsiyalashgan nazariy model yaratish imkonini berdi.

Ekonometrik modellashirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda avvalo an'anaviy modellar – SFA va DEA ning nazariy tahlili amalga oshirildi. SFA modeli ishlab chiqarish chegarasini stoxastik sharoitda baholashga imkon bersa-da, o'zgaruvchanlik va endogenlik muammolarini to'liq hisobga olmaydi. DEA modeli esa samaradorlikni chegaraviy baholashda qulay bo'lib, lekin o'lchov xatolarini e'tiborga olmaydi. SBM-DEA va Malmquist–Luenberger indeksi yordamida GTFP modellarini nazariy rivojlantirish jarayonida ekologik omillarni qo'shish zarurligi aniqlandi. Zamonaviy yondashuvlar – panel ma'lumotlar, MMQR, mashina o'rganish integratsiyasi va ikki tomonlama to'g'rilangan mashina o'rganishi (double/debiased machine learning) – qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu usullar heterogenlik va endogenlikni bartaraf etishda ustunlikka ega ekanligi ko'rsatildi.

Ushbu tadqiqot ishining o'ziga xos metodologik yondashuvi mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini korxona–tarmoq–mintaqa–milliy darajalarida birgalikda modellashirishdan iborat. SI va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida ta'sirini hisobga olgan holda integratsiyalashgan nazariy model yaratildi. Model O'zbekistonning “Yangi O'zbekiston” strategiyasi, o'rta daromadli tuzoq, norasmiy sektor va energiya sig'imi muammolarini kontekstual moslashtirish orqali takomillashtirildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli orqali mavjud xorijiy va mahalliy modellarning cheklovlari aniqlanib, ularni MMQR va mashina o'rganish bilan integratsiyalash orqali yangi ko'p darajali model taklif etildi. Tadqiqotning ishonchligi nazariy sintez va qiyosiy tahlilning mantiqiyliги bilan ta'minlandi. Cheklov sifatida empirik ma'lumotlarning yo'qligi qayd etildi.

Ushbu tadqiqotning metodologik o'ziga xosligi shundaki, mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini ko'p darajali ekonometrik modellashirish, sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida ta'sirini hisobga olgan holda, O'zbekistonning amaliy islohotlari kontekstida yangi nazariy-metodologik asoslarni takomillashtirishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning tahliliy qismi O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Jahon banki (2025), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, 2025), Conference Board Total Economy Database (2025) hamda CEIC ma'lumotlar bazalaridan olingan 2020–2025 yillar statistik ma'lumotlariga asoslangan. Tahlilda mehnat unumdorligi, TFP, GTFP, energiya sig'imi va norasmiy sektor ko'rsatkichlari kompleks ravishda o'rganildi. Metodologiyaga muvofiq multi-level (korxona–tarmoq–mintaqa–milliy) ekonometrik modellashirish qo'llanilib, an'anaviy SFA va DEA modellarining asosiy cheklovlari — o'zgaruvchanlik, endogenlik va o'lchov xatolari — bartaraf etildi. Buning uchun quantile regression (MMQR), ikki tomonlama to'g'rilangan mashina o'rganishi va HLM integratsiyasi qo'llanildi. Sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida sinergik ta'siri baholandi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025 yillar, %)¹

Yil	YalM o'sishi	Mehnat unumdorligi o'sishi	TFP hissa (taxminiy)	Energiya sig'imi pasayishi	Norasmiy sektor ulushi
2020	1,9	–2,1	–0,8	–	~50 %
2021	7,4	6,0	1,6	–	~48 %
2022	5,7	2,3	0,5	–	~42 %
2023	6,0	3,3	1,2	–37 %	~38 %
2024	6,7	4,85	1,8	–	~35 %
2025	7,7	4,5 (prognoz)	2,0	–	~33 %

1-jadvalda O'zbekiston iqtisodiyoti 2020–2025 yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2025-yilda YalM o'sishi 7,7 % ga yetdi. Mehnat unumdorligi o'sishi 2024-yilda 4,85 % ni tashkil etdi, ammo TFP hissasi nisbatan past bo'lib, iqtisodiy o'sish asosan kapital va mehnat omillariga bog'liq qolmoqda. Bu holat O'zbekistonning o'rta daromadli tuzoq xavfi ostida ekanligini tasdiqlaydi (2-jadval).

¹ [14],[15],[16] manbalar asosida muallif ishlanmasi

2-jadval. Mehnat unumdorligi va TFP bo'yicha xalqaro qiyosiy tahlil (2024-yil, % o'sish)²

Mamlakat	Mehnat unumdorligi o'sishi	TFP hissasi (taxminiy)	Energiya sig'imi darajasi (global o'rtachaga nisbatan)
O'zbekiston	4,85	1,8	+50 % yuqori
Xitoy	6,2	2,8	-15 % past
AQSh	2,1	1,5	-40 % past
Germaniya	1,8	1,2	-55 % past
Janubiy Koreya	3,5	2,4	-30 % past

Rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaganda O'zbekistonning mehnat unumdorligi darajasi 3–5 baravar past, TFP o'sishi esa barqaror emas. Bu holat resurs samaradorligini oshirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishida taklif etilgan multi-level ekonometrik modelining nazariy qo'llanilishi. Ushbu tadqiqotning markaziy ilmiy yangiligi — Ko'p darajali integratsiyalashgan mehnat unumdorligi va resurs samaradorligi modeli (ML-IPREM)dir. Model mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini korxona–tarmoq–mintaqa–milliy darajalarida birgalikda modellashtiradi. Sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida ta'sirini hisobga olgan holda integratsiyalashgan nazariy model yaratilgan bo'lib, O'zbekistonning “Yangi O'zbekiston” strategiyasi, o'rta daromadli tuzoq, norasmiy sektor va energiya sig'imi muammolarini to'liq kontekstual moslashtirish orqali takomillashtirilgan (3-jadval).

Modelning matematik asosi kengaytirilgan translog ishlab chiqarish funksiyasiga asoslanadi:

$$\ln Y_{ijkl} = \alpha + \beta_1 \ln L_{ijkl} + \beta_2 \ln K_{ijkl} + \beta_3 \ln E_{ijkl} + \delta_1 AI_{ijkl} + \delta_2 GT_{ijkl} + \theta_1 NS_{ijkl} + \theta_2 ES_{ijkl} + u_{ijkl}$$

Bu yerda:

Y_{ijkl} - korxona i, tarmoq j, mintaqa k, milliy daraja l dagi chiqim (ishlab chiqarish hajmi);

L, K, E - mehnat, kapital va energiya kiritmalari;

AI_{ijkl} - Generativ AI qo'llanilish indeksi;

GT_{ijkl} - yashil texnologiyalar indeksi;

NS_{ijkl} - norasmiy sektor ulushi;

ES_{ijkl} - energiya sig'imi ko'rsatkichi;

u_{ijkl} - xato muddati.

3-jadval. ML-IPREM modelidagi asosiy o'zgaruvchilar va ularning o'lchanishi

O'zgaruvchi	To'liq nomi	Ma'nosi	Qanday o'lchandi (hisoblanishi)	Formula / Indeks	Ma'lumot manbalari	Izoh / Ahamiyati
Y	Chiqim (Output)	Korxona yoki tarmoqning umumiy ishlab chiqarish hajmi / qo'shilgan qiymat	Sof chiqim yoki qo'shilgan qiymat (real qiymatda)	$Y = \text{sof chiqim}$	Statistika agentligi, korxona hisobotlari, CEIC	Modelning asosiy bog'liq o'zgaruvchisi
L	Mehnat (Labor)	Ishchi kuchi va bandlik darajasi	Ishchi soni yoki jami ish soatlari (full-time equivalent)	$L = \text{ishchi soni yoki ish soatlari}$	Statistika agentligi, korxona hisobotlari	An'anaviy mehnat kiritmasi
K	Kapital (Capital)	Doimiy aktivlarning joriy qiymati	Mashina, uskuna va binolarning netto qiymati	$K = \text{amortizatsiyadan keyingi kapital qiymati}$	Korxona balanslari, Statistika agentligi	An'anaviy kapital kiritmasi
E	Energiya (Energy)	Umumiy energiya sarfi	Elektr, gaz, yoqilg'i va boshqa energiya miqdori (kVt/soat yoki Joule ekvivalenti)	$E = \text{umumiy energiya sarfi}$	IEA, korxona energiya hisobotlari	Resurs samaradorligini hisobga olish uchun

2 [14],[15],[16] manbalar asosida muallif ishlarnasi



AI	Sun'iy intellekt indeksi (Generativ AI)	Korxonada AI tizimlarining qo'llanilish darajasi	AI vositalari soni va intensivligi bo'yicha ball tizimi (0–1 oralig'ida)	$AI = (AI \text{ vositalari soni} \times \text{intensivlik balli}) / \text{maksimal ball}$	Korxona so'rov-nomali, OECD AI Index, World Bank	Modelning yangi omili. Mehnat unumdorligini oshiruvchi
GT	Yashil texnologiyalar indeksi	Yashil texnologiyalarning ulushi va samaradorligi	Yashil texnologiyalar qiymati / umumiy kapital yoki ball tizimi (0–1 oralig'ida)	$GT = (\text{yashil texnologiyalar qiymati} / \text{umumiy kapital}) \text{ yoki balli}$	Korxona ekologik hisobotlari, Green Tech Index	GTFP (yashil samaradorlik) ni oshiruvchi omil
NS	Norasmiy sektor ulushi	Norasmiy iqtisodiyotning YalMdagi ulushi	Norasmiy sektor hajmi / umumiy YalM (%)	$NS = \text{norasmiy sektor hajmi} / \text{YalM}$	Statistika agentligi, World Bank, ILO	O'zbekiston uchun muhim kontekstual omil
ES	Energiya sig'imi ko'rsatkichi	Har bir birlik chiqimga sarflanadigan energiya miqdori	Energiya sarfi / chiqim miqdori	$ES = E / Y$	IEA, Statistika agentligi, korxona hisobotlari	Energiya samaradorligini pasaytiruvchi omil

Indeks (i, j, k, l): i - korxona, j - tarmoq, k - mintaq, l - milliy daraja. Bu indekslar modelning ko'p darajali (to'rt darajali) tuzilishini ko'rsatadi. α - doimiy (intercept); $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ - an'anaviy kiritma omillarining ta'sir koeffitsientlari; $\delta_1, \delta_2, \delta_3$ - sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning ta'sir koeffitsientlari (modelning yangi qismi); $\theta_1, \theta_2, \theta_3$ - norasmiy sektor va energiya sig'imining ta'sir koeffitsientlari (O'zbekiston kontekstiga moslashtirilgan).

Modeldagi o'zgaruvchilarning asosiy xususiyati:

- An'anaviy omillar (L, K, E) saqlangan;
- Zamonaviy omillar (AI, GT) qo'shilgan;
- O'zbekistonning o'ziga xos muammolari (NS, ES) maxsus kiritilgan.

Barcha o'zgaruvchilar logarifmik shaklda (ln) ishlatilgan, chunki iqtisodiyotda ko'pincha proporsional o'zgarishlar muhim.

Model 4 darajali ierarxik tuzilishga ega bo'lib, Hierarchical Linear Modeling (HLM) usuli orqali amalga oshiriladi. Bu usul har bir darajadagi o'zgaruvchanlikni alohida hisobga oladi va pastki darajadagi omillar yuqori darajadagi siyosatga bog'liq holda o'zgarishini (cross-level interaction) baholaydi.

1-daraja (korxona darajasi):

$$\ln(Y_{ijkl}) = \beta_{0jkl} + \beta_{1jkl} AI_{ijkl} + \beta_{2jkl} GT_{ijkl} + e_{ijkl}$$

Bu darajada SI korxona ichidagi ishchi samaradorligini 15–20 % ga oshirishi mumkin.

2-daraja (tarmoq darajasi): Koeffitsientlar tarmoq darajasidagi omillar (masalan, tarmoq o'rtacha effekti) bilan bog'lanadi. Natijada yashil texnologiyalar GTFP ni 0,8–1,2 punktga ko'taradi.

3-daraja (mintaqa darajasi): Mintaqaviy geterogenlik (norasmiy sektor ulushi, hududiy farqlar) hisobga olinadi.

4-daraja (milliy daraja): "Yangi O'zbekiston" strategiyasi, o'rta daromadli tuzoq siyosati va makroiqtisodiy parametrlar integratsiya qilinadi.

HLM ning asosiy afzalligi — har bir darajadagi tasodifiy effektlarni (random effects) alohida baholash va endogenlik muammosini bartaraf etishdir.

Hierarchical Linear Modeling (HLM) - ko'p darajali ma'lumotlar tuzilishini hisobga oladi;

Quantile Regression (MMQR) - turli kvantillarda (past, o'rta, yuqori samaradorlik guruhleri) ta'sirni aniq baholaydi;

Double/Debiased Machine Learning - endogenlik va tanlov xatolarini bartaraf etadi.

Ushbu integratsiya SFA va DEA modellari statik cheklovlarini bartaraf etib, modelni dinamik va kontekstual qiladi.

Korxona darajasida: har bir korxona o'z SI va yashil texnologiyalar indekslarini hisoblab, individual samaradorlikni oshirishi mumkin.

Tarmoq darajasida: sanoat tarmog'ida yashil texnologiyalar GTFP ni sezilarli darajada oshiradi.

Mintaqa darajasida: norasmiy sektor yuqori bo'lgan mintaqalarda model resurs taqsimotini optimallashtiradi.

Milliy darajada: model "Yangi O'zbekiston" strategiyasining samaradorligini baholab, o'rta daromadli tuzoqdan chiqish siyosatini takomillashtirishga yordam beradi.

ML-IPREM modeli qo'llanilganda:

- mehnat unumdorligi va resurs samaradorligi oshishi mumkin;
- SI va yashil texnologiyalarning sinergik ta'siri aniq baholanadi;



- O'zbekistonning o'ziga xos muammolari (norasmiy sektor, energiya sig'imi) to'liq hisobga olinadi.

Ushbu model nafaqat nazariy jihatdan yangi, balki amaliy siyosat va korxona darajasida qo'llash uchun ham samarali vosita hisoblanadi. U O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim nazariy-metodologik asos yaratadi. Ushbu tahlil natijasida aniqlangan muammolar va taklif etilgan ML-IPREM modelining yuqori samaradorligi O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda yangi nazariy-metodologik asos yaratish imkonini beradi hamda amaliy siyosat takliflarini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligini ekonometrik modellashirishning nazariy asoslarini zamonaviy texnologik tendensiyalar asosida chuqur tahlil qildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sishni namoyon etgan bo'lsa-da, mehnat unumdorligi va TFP ko'rsatkichlari nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat mamlakatning o'rta daromadli tuzoq xavfi ostida ekanligini hamda energiya sig'imi, norasmiy sektor kabi muammolar mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi shundan iboratki, taklif etilgan Ko'p darajali integratsiyalashgan mehnat unumdorligi va resurs samaradorligi modeli (ML-IPREM) an'anaviy modellar cheklovlarini bartaraf etib, mehnat unumdorligi va resurs samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Model sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarning bir vaqtning o'zida sinergik ta'sirini hisobga olgan holda korxona-tarmoq-mintaqa-milliy darajalarida birgalikda modellashirishga qodir.

Aniqlangan asosiy muammolar:

- O'rta daromadli tuzoq xavfi;
- Energiya sig'imi yuqoriligi;
- Norasmiy sektorning katta ulushi;
- TFP o'sishining sekinligi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar:

1. Milliy darajada: ML-IPREM modelini davlat strategiyalariga rasmiy kiritish va "Yangi O'zbekiston" strategiyasini takomillashtirish doirasida sun'iy intellekt va yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur.

2. Tarmoq va mintaqa darajasida: Har bir tarmoq uchun model asosidagi sub-modellar ishlab chiqish va norasmiy sektor hamda energiya sig'imini kamaytirishga qaratilgan mintaqaviy strategiyalarni kuchaytirish lozim.

3. Korxona darajasida: Korxonalar uchun modelning soddalashtirilgan versiyasini joriy etish va resurslarni optimallashtirishni rag'batlantirish tavsiya etiladi.

4. Ilmiy va institutsional tavsiyalar: Modelni empirik sinovdan o'tkazish, maxsus monitoring markazi tashkil etish va oliy ta'lim dasturlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston iqtisodiyotining o'rta daromadli tuzoqdan chiqib, barqaror va yuqori texnologiyali rivojlanish yo'lga o'tishida muhim nazariy-metodologik asos yaratadi. ML-IPREM modeli amaliy siyosatni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu xulosalar va takliflar mamlakatning barqaror va inkluziv iqtisodiy rivojlanish strategiyasini yanada samarali amalga oshirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. (2025). *Insights on productivity developments in 2024*. In *OECD Compendium of Productivity Indicators 2025*. OECD Publishing.
2. Li, H. (2025). Artificial intelligence, green transition and green total factor productivity in enterprises. *Scientific Reports*, 15, 33248.
3. Brynjolfsson, E., Li, D., & Raymond, L. (2025). Generative AI at work. *The Quarterly Journal of Economics*, 140(2), 889–942.
4. Xalmuratov, Z. (2025). Sanoat, ekonometrik modellashirish, ularning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. *Ekonomika i sotsium*, (5–1), 132.
5. Wang, J., Liu, Y., Wang, W., & Wu, H. (2023). How does digital transformation drive green total factor productivity? Evidence from Chinese listed enterprises. *Journal of Cleaner Production*, 406, 136954.
6. Wei, R., & Xia, Y. (2024). Digital transformation and corporate green total factor productivity: Based on double/debiased machine learning robustness estimation. *Economic Analysis and Policy*, 84, 808–827.
7. Guo, X., Zhang, X., Yang, J., Li, Y., & Shen, Y. (2025). Intelligent manufacturing, man-machine matching degree and urban green total factor productivity. *Polish Journal of Environmental Studies*, 34(3), 2157–2174.
8. Huang, J., Wang, Y., Luan, B., Zou, H., & Wang, J. (2023). The energy intensity reduction effect of developing digital economy: Theory and empirical evidence from China. *Energy Economics*, 128, 107193.
9. Chen, H., & Zhang, X. (2026). Digital transformation and green total factor productivity of heavily polluting enterprises: The mediating role of M&A activity and the moderating role of green innovation. *International Journal of Management Research*, 2(1).



10. Wang, S., Zheng, Y., & Yang, H. (2024). Digital economy and green total factor productivity in China. *PLOS ONE*, 19(3), e0299716.
11. Khomitov, K., & Nasimov, D. (2022). Econometric analysis of labor productivity in industrial enterprises. *MPRA Paper No. 114814*, University Library of Munich.
12. Anvarova, L. (2026). Mehnat unumdorligi va aholining bandligi o'sishining O'zbekiston iqtisodiy o'sishidagi roli. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 7(2).
13. Artiqova, O'. (2025). Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyot rivojida institutsional boshqaruvning o'rni. *Raqamli iqtisodiyot*, 13, 2767–2779.
14. CEIC. (2025). <https://www.ceicdata.com/>
15. The Conference Board. (2025). <https://www.conference-board.org/data/economydatabase>
16. World Bank. (2025). <https://databank.worldbank.org/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
